

Agentlikning vakant lavozimlaridagi nomzodlarga suhbat jarayonida beriladigan taxminiy savollar

1. Elektr energetikasi sohasidagi qanday asosiy qonuniy hujjatlarni bilasiz?
2. “Elektr energetikasi to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq tartibga solinadigan tariflar va to‘lovlar kim tomonidan tartibga solinadi?
3. Elektr energiyasi ta‘minoti bo‘yicha iste‘molchi bilan shartnoma kim o‘rtasida tuziladi?
4. Foydalanuvchi taqsimlash elektr tarmoqlaridan foydalanishda qaysi hujjatga asoslanadi?
5. O‘zbekiston Respublikasida elektr energiyasining ulgurji va chakana bozori mexanizmlariga o‘tish necha bosqichda amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan?
6. Elektr energiyasi uchun kross-subsidiya tushunchasi nima?
7. Elektr energiyasini uzatish tarmog‘i orqali yetkazib beruvchi kim?
8. Elektr ta‘minoti shartnomasi qanday asosda tuziladi?
9. Qanday hollarda ta‘minotchi elektr berilishini to‘xtatishi mumkin?
10. Elektr energiyasi uchun hisob-kitob qaysi hujjat asosida amalga oshiriladi?
11. Elektr energiyasi uchun aniq hisoblagichlarni o‘rnatish kimning mas‘uliyati?
12. Elektr energiyasi bilan bog‘liq kelishmovchiliklar qayerda ko‘rib chiqiladi?
13. Elektr ta‘minoti bilan bog‘liq da‘volar bo‘yicha javobgarlikni kim ko‘taradi?
14. Yirik iste‘molchi kim?
15. Elektr energiyasi bozori ishtirokchisi tushunchasiga kimlar kiradi?
16. Elektr energiyasi bozori qoidalari nimalardan iborat bo‘ladi?
17. Elektr energiyasi bozori konsepsiyasi kim tomonidan ishlab chiqiladi?
18. Yirik iste‘molchi maqomi kim tomonidan belgilanadi?
19. Tizim operatori qanday vazifani amalga oshiradi?
20. Elektr energiyasining ulgurji va chakana bozori konsepsiyasi quyidagilardan qay birini o‘z ichiga olgan bo‘lishi shart?
21. Markaziy xarid qiluvchining tijorat qoidalari deganda nima tushuniladi?
22. “Elektr energetikasi to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq Bozor qoidalari qaysi hujjat asosida ishlab chiqiladi hamda Bozor qoidalari kim tomonidan tasdiqlanadi?
23. Elektr energiyasi bozori faoliyatining monitoringi kim tomondan amalga oshiriladi?
24. Microsoft Excel dasturida AVERAGE(A1:A5) funksiyasining vazifasi nimadan iborat?
25. Fishing hujumi nima?
26. Kiberxavfsizlik tushunchasi va server qurilmalarida kiberxavfsizlikni ta‘minlashning qanday usullari bor?
27. O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra axborot resursini qanday tashkil etish mumkin?

28. IP manzil tushunchasi va IP manzil vazifasi nimadan iborat?
29. Agile metodologiyasi qaysi sohada keng qo'llaniladi?
30. Kompyuter tarmog'ining asosiy turlari qaysi?
31. "Firewall" nima vazifani bajaradi?
32. Foydalanuvchi parollarini saqlashning xavfsiz usuli qaysi?
33. Ma'lumotlar bazasi tizimlarida "PRIMARY KEY" nima uchun kerak?
34. Kompyuter viruslaridan himoya qilish uchun qanday dastur kerak?
35. Yagona elektron hujjat aylanmasi qaysi vazifani bajaradi?
36. Ma'lumotlarni "backup" qilish nima uchun kerak?
37. "Axborot xavfsizligi to'g'risidagi" qonun qachon qabul qilingan va qisqacha mazmuni?
38. Microsoft Word dasturida "Ctrl + Z" buyrug'i qanday vazifani bajaradi?
39. Python dasturlash tilida "if" operator nima uchun ishlatiladi?
40. Kompyuter tarmog'ida "Client" va "Server" tushunchalari qay tarzda bog'langan?
41. Korporativ pochta tarmog'ini tashkil etishda e'tibor qaratish kerak bo'lgan jihatlari.
42. OPNsense qanday tizim?
43. O'zbekiston elektr energetikasi sohasida qanday dasturiy ta'minotlar mavjud va yana qanday dasturiy ta'minot joriy qilsa bo'ladi?
44. Energetika bozori savdo platformasi nima uchun kerak va savdo platformasining ishlash prinsipi nimalardan iborat?
45. Dasturiy ta'minot yaratish uchun texnik shartlar qaysi davlat idoralari bilan kelishish kerak?
46. Serverlar xavfsizligini qanday usullar bilan ta'minlash mumkin?
47. IPv4 va IPv6 o'rtasidagi asosiy farqlari
48. SSL sertifikat nima va u nima uchun kerak?
49. VPN nima va uning ishlash tartibi qanday?
50. Domen tushunchasi va uni tashkilotga joriy etish usullari
51. Tizim administratorining vazifasi va majburiyatlari
52. Elektr energiyasi tariflarida "WACC" tushunchasi nima va u qanday aniqlanadi?
53. RAB (Regulatory Asset Base) modeli nima va u qanday maqsadlarda qo'llaniladi?
54. Tarifni belgilashda "xarajat+" usulining afzalliklari va kamchiliklarini tushuntiring.
55. Xalqaro moliya institutlardan (IFC, ADB, WB) resurs jalb etish jarayonida qanday iqtisodiy hujjatlar tayyorlanadi?
56. Elektr energiyasida yo'qotishlar qanday turlarga bo'linadi?
57. Elektr energiyasi tarifida amortizatsiya qanday hisobga olinadi?

58. Energetika korxonalarining likvidlilik ko'rsatkichlarini tahlil qilish uchun qaysi moliyaviy indikatorlar ishlatiladi?
59. Loyiha IRR 7% bo'lsa, WACC 10% bo'lsa, bu loyiha moliyaviy jihatdan maqbulmi?
60. Elektr energiyasi tariflarini belgilashda qaysi normativ-huquqiy hujjatlar asos bo'ladi?
61. Tashqi qarz orqali moliyalashtirilgan loyihalarining qanday moliyaviy xavflari mavjud?
62. Investitsiyaviy loyihaning moliyaviy barqarorligini qanday baholaysiz?
63. Elektr energiyasi ishlab chiqarish tannarxiga eng ko'p ta'sir qiluvchi omillar nimalardan iborat?
64. Energetika sohasidagi uzoq muddatli investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholashda nimalarga e'tibor qaratiladi?
65. Elektr energiyasi uchun "blokli tarif" tizimi nima va u qanday ijtimoiy vazifani bajaradi?
66. Tarif siyosatida "tariff shock" (keskin oshish) holatlarining oldini olish uchun qanday strategiyalar qo'llaniladi?
67. EBITDA nima va u nimani anglatadi?
68. Tashqi kredit olishda DSCR qanday minimal darajada bo'lishi talab etiladi?
69. CAPEXni asoslab beruvchi hujjatlar nimalardan iborat?
70. Xususiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qanday kafolatlar taqdim etiladi?
71. Energiya kompaniyasining balansida mavjud aktivlar qanday baholanadi?
72. Elektr energiyasi ishlab chiqaruvchilarning rentabellik ko'rsatkichlari qanday tahlil qilinadi?
73. Tariflar qanday daromadlarni qoplashga mo'ljallangan?
74. Kapital struktura tahlili nima?
75. Tarifda investitsiyaviy komponentni kiritish qoidalari qanday?
76. Elektr energiyasi tarifining o'zgarishi ishlab chiqaruvchining naqd pul oqimiga qanday ta'sir qiladi?
77. Pul oqimlarini tahlil qilishda qanday davrlar muhim hisoblanadi?
78. Foyda marjasi nima va qanday aniqlanadi?
79. Amortizatsiya stavkasi qanday belgilanadi?
80. Elektr energiyasi bozori liberallashtirish narxlariga qanday ta'sir ko'rsatadi?
81. Tariff prognozini tuzishda qanday omillar hisobga olinadi?
82. Ichki audit xizmatining asosiy maqsadi nimadan iborat?
83. Ichki audit xizmatining asosiy vazifalaridan uchtasini sanab bering.
84. Ichki audit xizmati byudjet xarajatlarining samaradorligini qanday baholaydi?
85. Masofaviy auditning maqsadi nima?

86. Ichki audit xizmati davlat organlari bilan qanday hamkorlik qiladi?
87. Ichki audit xizmatining huquqlaridan ikkitasini aytib bering.
88. Ichki audit xizmati qanday holatda ichki audit tadbirini rad etishi mumkin?
89. Ichki audit xizmati jinoyat alomatlarini aniqlasa, qaysi organlarga xabar beradi?
90. Ichki audit xizmatining asosiy majburiyatlaridan biri sifatida ma'lumotlarning qanday xususiyati ta'minlanishi kerak?
91. Ichki audit xizmati qanday yo'l bilan byudjet qonunbuzarliklarini bartaraf etish choralarini amalga oshiradi?
92. Ichki audit xizmati tashkilotda xatarlarni qanday aniqlaydi va baholaydi?
93. Ichki audit tekshiruvi jarayonida hujjatlar bilan ishlash qanday tartibda amalga oshiriladi?
94. Ichki audit xizmatining yillik rejasi qanday tartibda tuziladi?
95. Ichki audit tekshiruv natijalarini qanday tarzda rasmiylashtiradi?
96. Ichki audit va tashqi audit o'rtasidagi farq nimada?
97. Ichki audit xizmatining etika qoidalari nimalarni o'z ichiga oladi?
98. Ichki audit tekshiruvlari natijasida aniqlangan kamchiliklar bo'yicha monitoring qanday amalga oshiriladi?
99. Strategik rejalashtirish nima?
100. "Yo'l xaritasi" qanday hujjat?
101. Strategik rejalashtirishda qaysi yo'nalish ustuvor hisoblanadi?
102. Agentlikning strategik vazifasi nimadan iborat?
103. Agentlik strategik rejani asosan qaysi hujjatlarga asoslanib ishlab chiqadi?
104. Strategik rejalashtirishning asosiy maqsadi nima?
105. Yo'l xaritasida qaysi elementlar bo'lishi shart?
106. Strategik maqsadlar necha yillik muddatga belgilanadi?
107. Strategik indikator nima?
108. Metodologiya bo'limi qanday asosiy vazifani bajaradi?
109. "Tahlil qilish" qaysi bosqichda amalga oshiriladi?
110. Qaysi hujjatda strategik vazifalar yuridik kuchga ega?
111. Energetika bozori qanday tashkil etilishi lozim?
112. 252-son qarorga ko'ra Agentlik nimani muvofiqlashtiradi?
113. Metodologik yondashuvning asosi nima?
114. Agentlik o'z faoliyatini qanday hisobotlar orqali baholaydi?
115. Yo'l xaritasi bo'yicha nazoratni kim amalga oshiradi?
116. "Metodologiya" so'zi nimani anglatadi?
117. Qaysi holda strategik reja qayta ko'rib chiqiladi?
118. Agentlik strategiyasida fuqarolar manfaatlari qanday aks etadi?
119. Strategik hujjat tasdiqlangandan keyingi birinchi qadam?
120. Agentlik strategik rejasining ijrosi qanday baholanadi?

121. Metodologiya bo‘limi qaysi ishni amalga oshirmaydi?
122. Energetika bozorini rivojlantirishda qanday strategik yondashuv ustuvor?
123. Qaysi faoliyat metodologiya yo‘nalishiga kiradi?
124. “Strategik ko‘rsatkichlar” qanday hujjatda aniq belgilanadi?
125. Agentlik qanday tahlilni olib boradi?
126. Metodologiya yo‘nalishi asosan kimlarga xizmat qiladi?
127. Strategik rejada qaysi element ustuvor emas?
128. Yo‘l xaritasidagi chora-tadbirlarning asosiy xususiyati qanday?
129. O‘zbekiston Respublikasida elektr energetikasi sohasida litsenziyalash bo‘yicha asosiy me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qaysilar?
130. “Litsenziya” tushunchasi nimani anglatadi?
131. O‘zbekiston Respublikasida elektr energetikasi sohasida qaysi faoliyat turlari majburiy litsenziyalashga taalluqli?
132. Litsenziya ruxsatnoma yoki akkreditatsiyadan nimasi bilan farq qiladi?
133. Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini nazorat qiluvchi vakolatli organlar qaysilar?
134. Litsenziya shartlarini buzganlik uchun qanday turdagi javobgarlik belgilangan?
135. Litsenziya olish uchun hujjatlar qaysi raqamli platformalar orqali taqdim etiladi (masalan, YAIDXP – my.gov.uz)?
136. Elektron litsenziyalashning an‘anaviy (qog‘ozdagi) shakldan farqli jihatlari nimalar?
137. Litsenziyasiz faoliyat amalga oshirish qanday huquqiy oqibatlarga olib keladi?
138. Litsenziyatlar faoliyati ustidan nazorat qanday shakllarda amalga oshiriladi?
139. Litsenziyalash sohasidagi qonunbuzarliklar uchun qanday javobgarlik turlari (ma‘muriy, jinoiy, moliyaviy) mavjud?
140. Litsenziyalangan faoliyatni uchinchi shaxslarga yuklash mumkinmi?
141. Litsenziya mavjudligini tasdiqlovchi qanday hujjatlar mavjud va uning haqiqiyligini qayerdan tekshirish mumkin?
142. Davlat organlari tomonidan o‘tkaziladigan tekshiruvlarga tayyorgarlik jarayonida litsenziyalash bo‘limi qanday rol o‘ynaydi?
143. O‘zbekiston Respublikasining “Elektr energetikasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-939-son Qonunida elektr energetikasi bozorini tartib soluvchi organ etib qaysi tashkilot belgilangan?
144. Agentlik ning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
145. Yagona elektr energetikasi tizimi tushunchasiga izoh bering?
146. Elektr energetikasi sohasidagi korxonalar o‘rtasidagi texnik yo‘nalishdagi munosabatlar qaysi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinadi?
147. Elektr energiyasini ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar haqida ma‘lumotga egamisiz?

148. Elektr energiyasini uzatish faoliyati qaysi korxona tomonidan amalga oshiriladi. Uzatish tizimi operatorining vazifalari nimalardan iborat?
149. Tezkor-dispatcherlik boshqaruvi tushunchasiga izoh bering. Tezkor-dispatcherlik boshqaruvi qaysi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi?
150. Yakuniy iste'molchilarga elektr energiyasini taqsimlash bilan qaysi korxona shug'ullanadi. Taqsimlash tizimi operatorining vazifalari nimalardan iborat?
151. Elektr energetikasi obyektlariga qaysi infratuzilma obyektlari kiradi?
152. Kuchlanish darajalari (yuqori, o'rta, past) haqida ma'lumotga egamisiz?
153. Ulanish shartnomasi tushunchasiga izoh bering, ulanish shartnomasi nimalarni o'z ichiga oladi?
154. Elektr energiyasini ishlab chiqarish va iste'mol qilish muvozanati (balansi) qanday shakllantiriladi?
155. Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlashda yuzaga keladigan texnologik sarf tushunchasiga izoh bering?
156. Yo'qotishlarni qanday turlari mavjud? Yo'qotishlar qanday omillar hisobiga yuzaga keladi? Ularni kamaytirish uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak?
157. Elektr energiyasini hisobga olish tizimi qanday asbob-uskunalaridan tashkil topgan?
158. Hisobga olish tizimining ruxsat etilgan xatoliklari bilan bog'liq yo'qotishlar deganda nimani tushunasiz?
159. O'rnatilgan quvvat tushunchasiga izoh bering?
160. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar – texnik reglamentlar, standartlashtirishga doir normativ hujjatlar tarkibiga qaysi me'yoriy-huquqiy hujjatlar kiradi?
161. Magistr al elektr tarmoqlaridan foydalanish qoidalarini bilasizmi? Qanday hujjat? Nimalarni o'z ichiga olgan?
162. Elektr tarmog'ining balans bo'yicha mansublik chegarasi tushunchasiga izoh bering.
163. Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish sohasidagi munosabatlar qaysi me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinadi?
164. Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlashda yuzaga keladigan texnologik sarf me'yorlari qaysi vakolatli idora tomonidan tasdiqlanadi?
165. Hisobga olish tizimlaridan o'lchov transformatorlari qanday vazifani bajaradi?
166. Taqimlash elektr tarmoqlaridan foydalanish qoidalarida nimalar aks ettirilgan?
167. Aktiv va reaktiv energiya (quvvat) tushunchasiga izoh bering.
168. Reaktiv quvvat kompensatsiyasi qanday tartibda amalga oshiriladi? Bu nima uchun kerak?

- 169.O‘z ehtiyoji uchun elektr energiyasi iste‘moli deganda nimani tushunasiz.
- 170.Elektr energetikasi korxonalari haqida ma’lumotga egamisiz.
- 171.Texnik hisobga olish nuqtalari qanday maqsadda tashkil etiladi?
- 172.Elektr stansiyalarining turlari va ishlash prinsiplari haqida ma’lumotga egamisiz?
- 173.Elektr energiyasining sifat ko‘rsatkichlari deganda nimani tushunasiz.
- 174.Taqsimlash tizimining ishonchliligini bo‘yicha SAIFI va SAIDI ko‘rsatkichlari haqida tushunchaga egamisiz.
- 175.Nega aynan xalqaro aloqalar va reytinglar sohasida ishlashni xohlaysiz?
- 176.Avvalgi ish tajribangizda qaysi sohalar xalqaro munosabatlarga yoki reytinglarga aloqador bo‘lgan?
- 177.Sizning kuchingiz va sust tomonlaringiz nimalardan iborat?
- 178.Kelajakdagi 3-5 yillik maqsadlaringiz nimalardan iborat?
- 179.Xalqaro hamkorlik yo‘nalishida qanday tajribangiz bor?
- 180.Xalqaro delegatsiyalarni qabul qilish jarayonida e’tibor berish kerak bo‘lgan asosiy jihatlar nimalar?
- 181.Diplomatik yozishmalar yoki rasmiy xatlar tayyorlaganmisiz? Misol keltira olasizmi?
- 182.Xalqaro shartnomalar yoki memorandumlarni tayyorlash jarayonini bilasizmi?
- 183.Xalqaro konferensiya yoki forumlarni tashkil etishda ishtirok tajribangiz bo‘lganmi?
- 184.O‘zbekiston qaysi xalqaro tashkilotlarga a‘zo va ular bilan hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?
- 185.O‘zbekistonning tashqi siyosatida “Markaziy Osiyo mintaqaviy hamkorligi”ning ahamiyati nimada?
- 186.O‘zbekistonning qo‘shni davlatlar bilan chegara, suv resurslari yoki transport sohasidagi kelishuvlari haqida nima bilasiz?
- 187.O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatini belgilab beradigan asosiy huquqiy hujjatlar qaysilar?
- 188.O‘zbekistonning xalqaro reytinglardagi (muloqot va iqtisodiy) ko‘rsatkichlarini yaxshilash uchun qaysi sohalarga e’tibor berish zarur?
- 189.O‘zbekistonning “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi xalqaro hamkorlik va reytinglar bilan qanday bog‘liq?
- 190.O‘zbekistonning xalqaro energetika tashkilotlari (masalan, OPEC+, IRENA) bilan hamkorligi haqida nima bilasiz?
- 191.O‘zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalari (Quyosh, shamol, gidroenergetika) sohasida xalqaro loyihalar va hamkorlar kimlar?
- 192.O‘zbekistonning tranzit davlat sifatida energetika (gaz va neft quvurlari) sohasida tutgan o‘rnini qanday baholaysiz?
- 193.Xalqaro reytinglar va indekslar haqida nima bilasiz (QS, THE, ARWU va h.k.)?

- 194.**Hujjatlarni tarjima qilish tajribangiz bormi?
- 195.**Xorijiy hamkorlar bilan elektron xat almashishda qanday uslubga amal qilasiz?
- 196.**Xorijiy sheriklar bilan kelishuv jarayonida nizo kelib chiqsa, qanday yechim taklif qilasiz?
- 197.**Tezkor xalqaro tadbir (masalan, konferensiya) tashkil etish uchun 3 kun vaqt berilsa, qanday yo‘l tutib ishni rejalashtirasiz?
- 198.**Sizga ishga qabul qilinsa, birinchi 90 kunda nimalarni amalga oshirishni rejalashtirasiz?